



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini..... | 10 |
| <i>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</i> | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni | 14 |
| <i>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</i> | |
| Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari | 17 |
| <i>Dilsora Shodmonova</i> | |
| Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях | 24 |
| <i>Истамова Нигора Азимжановна</i> | |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari..... | 29 |
| <i>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</i> | |
| Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari..... | 32 |
| <i>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</i> | |
| Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari..... | 36 |
| <i>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</i> | |
| Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish..... | 40 |
| <i>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</i> | |
| Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline | 44 |
| <i>Lola Mannobova</i> | |
| Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries | 48 |
| <i>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları | 51 |
| <i>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i> | |
| Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari | 55 |
| <i>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</i> | |
| O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni | 59 |
| <i>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</i> | |
| Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari | 64 |
| <i>Alimova Gulrux Farhod qizi</i> | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari | 70 |
| <i>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</i> | |
| Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni | 74 |
| <i>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'Iqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</i> | |
| O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) | 78 |
| <i>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</i> | |
| Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi | 82 |
| <i>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</i> | |
| Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi | 87 |
| <i>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</i> | |



| | |
|---|-----|
| Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari | 91 |
| <i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i> | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli | 95 |
| <i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i> | |
| Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) | 98 |
| <i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i> | |
| Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish | 103 |
| <i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i> | |
| Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish | 107 |
| <i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i> | |
| O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari | 113 |
| <i>Maxbuba Axatova</i> | |
| Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari | 116 |
| <i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar | 120 |
| <i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i> | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... .. | 123 |
| <i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish..... | 126 |
| <i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i> | |
| Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi | 130 |
| <i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i> | |
| Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari | 134 |
| <i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i> | |
| Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni..... | 137 |
| <i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i> | |
| Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli | 142 |
| <i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i> | |
| Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari | 146 |
| <i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i> | |
| O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari..... | 149 |
| <i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i> | |
| Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi | 153 |
| <i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i> | |
| Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari..... | 157 |
| <i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i> | |
| Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida.. | 161 |
| <i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i> | |
| Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni.. | 173 |
| <i>Alimova Nasiba Adxamovna</i> | |
| Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari..... | 179 |
| <i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i> | |
| Nutq madaniyati va notiqlik san'ati | 183 |
| <i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i> | |
| Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish | 188 |
| <i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i> | |
| Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati..... | 192 |
| <i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i> | |

| | |
|--|-----|
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi | 195 |
| <i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i> | |
| Modern Teaching Methods in English Language Learning..... | 199 |
| <i>Sarvinoz Abdulhakimova</i> | |
| Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi | 202 |
| <i>Shahnoza Muhammadiyeva</i> | |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari | 205 |
| <i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i> | |
| Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari..... | 208 |
| <i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i> | |
| Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida | 211 |
| <i>Temirov Murodjon Anvarovich</i> | |
| The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students..... | 215 |
| <i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i> | |
| Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik | 220 |
| <i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i> | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari | 224 |
| <i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i> | |
| Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations | 228 |
| <i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i> | |
| Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications..... | 232 |
| <i>Veronica Khatamova</i> | |
| Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi | 236 |
| <i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i> | |
| Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida | 240 |
| <i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i> | |
| Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish | 246 |
| <i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i> | |
| The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation..... | 250 |
| <i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i> | |
| Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan | 254 |
| <i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i> | |
| Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish | 257 |
| <i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i> | |
| Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari..... | 260 |
| <i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i> | |
| Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari | 263 |
| <i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i> | |
| Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина..... | 269 |
| <i>Рахимова Шахзода Равшановна</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari | 273 |
| <i>Imamova Nasiba Xurramovna</i> | |



| | |
|--|-----|
| Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari | 276 |
| Xidirov Faxriddin Fozilovich | |
| Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды | 280 |
| Рахмонова Нилуфар Уткир кизи | |

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA “MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH” MODULINI O’QITISH METODIKASI MUAMMO SIFATIDA

Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Mazkur bitiruv ishida innovatsion yondashuv asosida “Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish” modulini o'qitish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning pedagogik asoslari, zamonaviy interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar hamda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlarining samaradorligi ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM texnologiyasi, interfaol metodlar, ekologik o'yinlar, sensor tajribalar, multimedia vositalari, kreativ yondashuv, ekologik madaniyat, virtual ekskursiyalar.

Abstract: This graduation thesis scientifically and methodologically substantiates the pedagogical foundations of introducing children to nature in preschool educational organizations, the effectiveness of using modern interactive methods, innovative technologies, and digital educational tools in the process of teaching the module “Introducing Preschool Children to Nature” based on an innovative approach.

Key words: STEAM technology, interactive methods, ecological games, sensory experiments, multimedia tools, creative approach, ecological culture, virtual excursions.

Аннотация: Данная дипломная работа научно и методологически обосновывает педагогические основы знакомства детей с природой в дошкольных образовательных организациях, эффективность использования современных интерактивных методов, инновационных технологий и цифровых образовательных инструментов в процессе обучения модулю “Знакомство детей дошкольного возраста с природой” на основе инновационного подхода.

Ключевые слова: STEAM-технологии, интерактивные методы, экологические игры, сенсорные эксперименты, мультимедийные инструменты, творческий подход, экологическая культура, виртуальные экскурсии.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, bolalarning bilish faolligini rivojlantirish va ularni atrof-muhitga ongli munosabatda tarbiyalash ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni ularning ekologik tafakkuri, kuzatuvchanlik ko'nikmalari, hissiy-estetik idroki hamda tabiatga nisbatan mehr-muhabbatini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, aynan shu davrda atrof-muhitni idrok etish, tabiat hodisalarini kuzatish, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni anglash kabi dastlabki tasavvurlar tarkib topadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida ekologik muammolarning kuchayishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurati hamda yosh avlodda ekologik madaniyatni erta yoshdan shakllantirish masalasi maktabgacha ta'lim oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu sababli “Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish” modulini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish nafaqat nazariy bilim berish, balki bolalarda amaliy kuzatish, tajriba o'tkazish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Bu jarayonda innovatsion metodlar, interfaol ta'lim texnologiyalari, STEAM yondashuvi, ekologik o'yinlar, multimedia vositalari va virtual ekskursiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi.



An'anaviy ta'lim metodlarida bolalar ko'pincha tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi. Bunday yondashuv ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi va tabiat hodisalarini bevosita kuzatish orqali anglash imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Innovatsion yondashuv esa ta'lim jarayonida bolaning faolligini oshirish, uni mustaqil kuzatuvchi, izlovchi va amaliy faoliyat ishtirokchisi sifatida shakllantirishga yo'naltiriladi. Ayniqsa, tajriba-sinov mashg'ulotlari, ekologik loyihalar, tabiat obyektlarini bevosita kuzatish va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish bolalarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini innovatsion asosda tashkil etish pedagogdan yuqori metodik tayyorgarlik, ijodkorlik va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish kompetensiyasini talab qiladi. Pedagog bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va idrok imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni ko'rgazmali, amaliy va interfaol shaklda olib borishi zarur. Bu esa ta'lim jarayonida bolalarning ekologik bilimlarini kengaytirish bilan birga, ularda tabiatni asrash, o'simlik va hayvonot dunyosiga ehtiyotkor munosabatda bo'lish, atrof-muhitga mas'uliyat bilan qarash kabi sifatlarni shakllantiradi.

Demak, "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini innovatsion yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish bugungi maktabgacha ta'lim tizimining dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biridir. Mazkur yo'nalish bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish, bilish jarayonlarini faollashtirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda ularni tabiatga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish masalasi pedagogika, psixologiya, ekologik tarbiya va zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uzviy bog'liq ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala K.D. Ushinskiy, V.A. Suxomlinskiy, L.S. Vigotskiy, J. Piaje va M. Montessori kabi xorijiy olimlar hamda J. Hasanboev, U. Inoyatov, N. Azizxo'jayeva va R. Mavlonova kabi mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

K.D. Ushinskiy tabiatni bolalar tarbiyasining muhim vositasi sifatida baholab, tabiat bilan muloqot bolaning tafakkuri va axloqiy sifatlarini rivojlantirishini ta'kidlagan.

V.A. Suxomlinskiy esa bolalarda tabiatga mehr-muhabbat va ekologik madaniyatni shakllantirishda bevosita kuzatishning ahamiyatini ko'rsatib bergan.

L.S. Vigotskiy va J. Piaje tadqiqotlarida bolalarning bilish faoliyati amaliy tajriba va kuzatishlar asosida rivojlanishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlarda maktabgacha ta'lim jarayonida bolaning atrof-muhitni idrok etishi, tabiat hodisalarini kuzatishi, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni anglab borishi hamda ekologik madaniyatning shakllanishi muhim pedagogik vazifa sifatida yoritilgan.

Ilmiy-metodik manbalarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiyani samarali tashkil etishda ko'rgazmalilik, amaliy faoliyat, bevosita kuzatish, suhbat, tajriba-sinov va o'yin metodlarining o'rni alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa, tabiat hodisalarini kuzatish, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish, fasllar almashinuvi, suv, tuproq, havo va yorug'lik kabi tabiiy omillarni bolalarga sodda va tushunarli tarzda tushuntirish ekologik bilimlarning dastlabki asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, bola tabiatni faqat eshitish orqali emas, balki ko'rish, kuzatish, ushlab ko'rish, taqqoslash va tajriba qilish orqali chuqurroq anglaydi. Demak, tabiat bilan tanishtirish jarayonida amaliy va sensor faoliyatga asoslangan metodlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda innovatsion yondashuvlar maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi. STEAM texnologiyasi, interfaol metodlar, ekologik o'yinlar, muammoli vaziyatlar, loyiha metodi, virtual ekskursiyalar va multimedia vositalari bolalarda tabiatga qiziqishni kuchaytiruvchi samarali pedagogik vositalar sifatida ko'rsatiladi. Bu yondashuvlar orqali bola tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol kuzatuvchi, izlovchi va amaliy harakatlar bajaruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, STEAM texnologiyasi tabiatni fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematik elementlar bilan uyg'un holda o'rganish imkonini berib, bolalarda mantiqiy fikrlash, kreativ yondashuv va oddiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlarda raqamli ta'lim vositalarining maktabgacha yoshdagi bolalar ekologik tasavvurlarini shakllantirishdagi ahamiyati ham keng yoritilgan. Multimedia taqdimotlari, animatsion lavhalar, interaktiv topshiriqlar, audio va video materiallar, virtual ekskursiyalar bolalarning vizual idrokini faollashtirib, murakkab tabiat hodisalarini obrazli va tushunarli shaklda anglashga yordam beradi. Masalan, yomg'irning hosil bo'lishi, o'simliklarning o'sish jarayoni, hayvonlarning yashash muhiti yoki yil fasllarining almashinuvi kabi hodisalarni raqamli vositalar yordamida namoyish etish bolalarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi va bilimlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagogik manbalarda ekologik o'yinlar va tajriba-sinov mashg'ulotlari bolalarda ekologik ongni shakllantirishning samarali usullari sifatida talqin etiladi. Ekologik mazmundagi didaktik o'yinlar orqali bolalar tabiat obyektlarini farqlash, ularning xususiyatlarini aniqlash, foydali va zararli harakatlarni ajratish, tabiatni asrash qoidalarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tajriba-sinov faoliyatida esa urug' ekish, gul parvarishlash, suvning xususiyatlarini kuzatish, qum va tuproq bilan ishlash kabi amaliy mashg'ulotlar bolalarning kuzatuvchanlik, taqqoslash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish modulini innovatsion yondashuv asosida o'qitish ta'lim jarayonining mazmunini boyitadi, bolalarning bilish faolligini oshiradi va ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayrim manbalarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayonida texnik vositalarning yetarli emasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi pastligi, maxsus metodik resurslarning cheklanganligi va ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi kabi muammolar mavjudligi ham qayd etiladi. Demak, mavjud ilmiy-metodik qarashlar mazkur modulni takomillashtirish, innovatsion metodlarni tizimli qo'llash va bolalarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda uning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya, ekologik ta'lim va maktabgacha ta'lim metodikasiga oid ilmiy manbalar nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari, maktabgacha ta'limga doir davlat dasturlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ekologik tarbiya bo'yicha ilg'or ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Tadqiqot davomida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida qo'llanilayotgan an'anaviy va innovatsion metodlarning pedagogik imkoniyatlari o'zaro taqqoslandi. Interfaol metodlar, STEAM texnologiyasi, ekologik o'yinlar, tajriba-sinov mashg'ulotlari, multimedia vositalari va virtual ekskursiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishga oid mashg'ulotlar mazmuni, pedagoglarning faoliyati hamda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish holati o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, umumlashtirildi va tegishli ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini innovatsion yondashuv asosida o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashtirish va ekologik muammolar kuchayib borayotgan davrda maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga ongli munosabat, ekologik tafakkur va ekologik madaniyatni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yosh davri bolaning atrof-muhitni idrok etishi, tabiat hodisalarini kuzatishi hamda ekologik dunyoqarashining shakllanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim jarayonida tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari ko'p hollarda an'anaviy tushuntirish va suhbat metodlari asosida olib borilmoqda. Natijada bolalarda tabiat hodisalariga nisbatan qiziqishning sustligi, kuzatuvchanlik ko'nikmalarining yetarli rivojlanmasligi hamda ekologik tushunchalarning yuzaki shakllanishi kuzatiladi. Shu jihatdan innovatsion yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish muhim metodik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda STEAM texnologiyasi, interfaol metodlar, ekologik o'yinlar, sensor tajribalar hamda multimedia vositalari bolalarda ekologik tafakkurni shakllantirishning samarali vositalari sifatida e'tirof etilmoqda. Shuningdek, ekologik tarbiya jarayonida bolalarda tabiatga ehtiyotkor munosabat, sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda bolalar passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Bu esa ularning bilish faolligi, ijodiy fikrlashi va ekologik ongining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, multimedia taqdimotlari, virtual ekskursiyalar, tabiat hodisalarini bo'yicha tajriba-sinov ishlari hamda ekologik loyihalardan foydalanish bolalarda mavzuni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi (1-jadval).



1-jadval: Modulni o'qitishda uchraydigan asosiy muammolar

| Muammolar | Mazmuni | Yechim yo'llari |
|---|--|---|
| An'anaviy metodlarning ustunligi | Mashg'ulotlarda faqat og'zaki tushuntirishdan foydalanilishi | Interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llash |
| Ekologik tasavvurlarning sustligi | Bolalarda tabiat haqidagi bilimlarning yuzaki shakllanishi | Amaliy tajribalar va kuzatishlarni ko'paytirish |
| Raqamli vositalardan foydalanishning cheklanganligi | Multimedia va AKT vositalarining kam qo'llanilishi | Raqamli ta'lim resurslarini joriy etish |
| Bolalarning bilish faolligining pastligi | Mashg'ulotlarda mustaqil faoliyatning yetarli emasligi | Ekologik o'yinlar va loyiha metodidan foydalanish |
| Kuzatuvchanlik ko'nikmalarining rivojlanmaganligi | Tabiat hodisalarini tahlil qilishdagi qiyinchiliklar | Ekskursiya va tajriba metodlarini kengaytirish |

Innovatsion yondashuvlarning pedagogik ahamiyati

Innovatsion yondashuvlar maktabgacha ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda bolalarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va ekologik madaniyatni shakllantirish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali bolalar tabiat hodisalarini nafaqat eshitadi, balki amaliy faoliyat orqali anglaydi va tahlil qiladi(2-jadval).

2-jadval: Innovatsion metodlarning pedagogik imkoniyatlari

| Innovatsion metodlar | Pedagogik imkoniyatlari | Natijasi |
|-------------------------|---|---|
| STEAM texnologiyasi | Tabiatni integrativ yondashuv asosida o'rganish | Mantiqiy va kreativ fikrlash rivojlanadi |
| Multimedia vositalari | Vizual idrokni kuchaytiradi | Bilimlarni tez va samarali o'zlashtirish |
| Ekologik o'yinlar | Ta'lim jarayoniga qiziqishni oshiradi | Faollik va motivatsiya kuchayadi |
| Tajriba-sinov metodlari | Amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi | Kuzatuvchanlik va tahlil qilish shakllanadi |
| Virtual ekskursiyalar | Tabiiy obyektlarni virtual kuzatish imkonini beradi | Ekologik tasavvur kengayadi |

Innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligi

Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlardan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- bolalarda tabiatga mehr-muhabbat va ekologik madaniyat shakllanadi;
- ekologik tushunchalarni o'zlashtirish darajasi oshadi;
- mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat rivojlanadi;
- tabiat hodisalariga ilmiy yondashuv shakllanadi;
- kuzatuvchanlik va tahliliy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi;
- ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi.

Pedagogik tadqiqotlarda ekologik tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish bolalarning ekologik ongini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi ta'kidlangan.

"Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini innovatsion yondashuv asosida o'qitish metodikasi bugungi maktabgacha ta'lim tizimining eng dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy ta'lim tizimida bolaning nafaqat bilim olishi, balki uning ekologik tafakkuri, tabiatga bo'lgan munosabati, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning atrof-muhitni anglash, tabiat hodisalarini idrok etish va ekologik madaniyatining shakllanishida muhim psixologik-pedagogik bosqich sanaladi.

Hozirgi davrda ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi, atrof-muhit ifloslanishi kabi global jarayonlar yosh avlodni ekologik tarbiyalash masalasini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni oddiy kuzatish yoki ma'lumot berish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Mazkur jarayon bolalarda ekologik ong, tabiatga nisbatan mas'uliyat hissi, o'simlik va hayvonot dunyosiga mehr-muhabbat hamda ekologik xavfsizlik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilishi zarur.

An'anaviy ta'lim metodlarida pedagog asosiy faol subyekt sifatida qatnashib, bolalar esa ko'proq tinglovchi vazifasini bajaradi. Bunday yondashuv esa bolalarning mustaqil fikrlash, izlanish va ijodiy faoliyatini to'liq rivojlantirish imkonini bermaydi. Innovatsion yondashuvda esa ta'limning markazida bola shaxsi turadi. Pedagog esa yo'naltiruvchi, motivatsiya beruvchi hamda ta'lim jarayonini tashkil etuvchi sifatida faoliyat olib boradi. Bu esa bolaning o'z fikrini erkin ifodalashi, tabiat hodisalarini mustaqil kuzatishi va xulosa chiqarishiga imkon yaratadi.

Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda interfaol metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Kichik guruhlarda ishlash", "Muammoli vaziyat", "Rolli o'yinlar", "Ekologik loyiha" kabi metodlar bolalarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi. Ayniqsa, ekologik mazmundagi didaktik o'yinlar orqali bolalarda tabiat hodisalarini haqidagi bilimlar mustahkamlanadi va ularda tabiatga nisbatan qiziqish kuchayadi.

Maktabgacha ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish ham innovatsion yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Audio, video, animatsion materiallar, virtual ekskursiyalar hamda interaktiv taqdimotlar bolalarning vizual idrokini rivojlantiradi. Masalan, yil fasllarining almashinuvi, yomg'irning hosil bo'lishi, hayvonlarning yashash muhiti yoki o'simliklarning o'sish jarayonini animatsion ko'rinishda namoyish etish orqali bolalarda tabiat hodisalarini haqidagi tasavvurlar ancha chuqurlashadi. Bu esa bilimlarning uzoq muddat xotirada saqlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, innovatsion metodika asosida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari bolalarda amaliy faoliyatni rivojlantiradi. Masalan, urug' ekish, gul parvarishlash, suvning xususiyatlarini kuzatish, qum va tuproq bilan tajribalar o'tkazish orqali bolalar tabiat jarayonlarini amaliy jihatdan anglaydi. Bunday mashg'ulotlar bolalarning kuzatuvchanlik, taqqoslash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bugungi kunda STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'lim tizimiga joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu texnologiya fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiyalashgan holda o'qitishga asoslanadi. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida STEAM elementlaridan foydalanish orqali bolalarda tadqiqotchilik qobiliyati, kreativ tafakkur va muammoli vaziyatlarga yechim topish kompetensiyalari shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ekologik ekskursiyalar ham katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Tabiat qo'yniga sayohatlar, bog' va xiyobonlarga ekskursiyalar, hayvonot bog'iga tashriflar orqali bolalar tabiat obyektlarini bevosita kuzatadi. Bu esa nazariy bilimlarning amaliy kuzatish bilan uyg'unlashishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, jonli kuzatish jarayonlari bolalarda tabiatga nisbatan emotsional munosabatni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuv asosida o'qitishda pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ham muhim masala hisoblanadi. Pedagog zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, axborot-kommunikatsiya vositalarini hamda interfaol metodlarni samarali qo'llay olishi zarur. Chunki innovatsion ta'lim muhiti pedagogdan ijodkorlik, metodik tayyorgarlik va doimiy izlanishni talab etadi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion metodlarni qo'llash jarayonida ayrim muammolar ham uchramoqda. Jumladan, zamonaviy texnik vositalarning yetarli emasligi, pedagoglarning innovatsion texnologiyalar bo'yicha malakasining pastligi, ekologik ta'lim uchun maxsus multimedia resurslarining cheklanganligi hamda ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Demak, "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini innovatsion yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv bolalarning ekologik tafakkuri, bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni tabiatni asrash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni ularning ekologik tafakkuri, kuzatuvchanligi, bilish faolligi va tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Maktabgacha yosh davri bolaning atrof-muhitni idrok etishi, tabiat hodisalariga qiziqishi va ekologik madaniyatining dastlabki asoslari tarkib topadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini samarali tashkil etish bugungi maktabgacha ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur modulni faqat an'anaviy tushuntirish, suhbat va ko'rgazmali metodlar asosida tashkil etish bolalarning mustaqil fikrlashi, amaliy kuzatuv va ijodiy faolligini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Innovatsion yondashuv esa bolalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, ularda tabiat hodisalarini kuzatish, taqqoslash, tajriba qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, STEAM texnologiyasi, ekologik o'yinlar, tajriba-sinov mashg'ulotlari, multimedia vositalari, virtual ekskursiyalar va loyiha metodidan foydalanish bolalarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi.



Innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda tabiatga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi, ularning ekologik tasavvurlarini boyitadi va amaliy faoliyat orqali bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Urug' ekish, o'simliklarni parvarishlash, suv, tuproq, havo va boshqa tabiiy omillarni kuzatish kabi mashg'ulotlar bolalarda kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash va sabab–oqibat bog'lanishlarini anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Raqamli ta'lim vositalari esa murakkab tabiat hodisalarini obrazli, qiziqarli va tushunarli shaklda yetkazishga yordam beradi.

Shuningdek, modulni innovatsion asosda o'qitishda pedagogning kasbiy kompetentligini oshirish, zamonaviy metodik resurslardan foydalanish, ta'lim muhitini boyitish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Pedagog bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va idrok imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni amaliy, interfaol va ijodiy shaklda tashkil etishi zarur. Bunday yondashuv bolalarda ekologik bilimlarni shakllantirish bilan birga, tabiatni asrash, tirik mavjudotlarga g'amxo'rlik qilish va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish sifatlarini rivojlantiradi.

Umuman olganda, "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini innovatsion yondashuv asosida o'qitish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Mazkur yondashuv bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy faolligini kuchaytirish va tabiatga mas'uliyatli munosabatini tarbiyalashda muhim metodik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – O'RQ–637-son, 23.09.2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – PF–4947-son, 07.02.2017.
4. Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – 145 b.
5. Hasanboev J. va boshq. Pedagogika nazariyasi (Didaktika): Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011. – 420 b.
6. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan darslik. – Toshkent: TDPU, 2013. – 256 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.